



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SHAXSDA EKOLOGIK MAS'ULIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Soibjonov Jasurbek Botirjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi

Email: jasurbeksoibjonoov@gmail.com

Tel: +998930048147

Abdurahimova Shoira

O'zbekiston Milliy Universiteti psixologiya yo'nalishi talabasi

Abstract: *This article analyzes the psychological mechanisms of ensuring environmental safety. It highlights the formation of human attitudes toward nature and the role of psychological factors in the development of environmental awareness and ecological responsibility.*

Keywords: *environmental safety, environmental awareness, ecological culture, releasers, Konrad Lorenz, TPB model, ecological behavior, psychological mechanism, connectedness to nature, environmental education.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются психологические механизмы обеспечения экологической безопасности. Освещаются вопросы формирования отношения человека к природе, а также роль психологических факторов в развитии экологического сознания и экологической ответственности.*

Ключевые слова: *экологическая безопасность, экологическое сознание, экологическая культура, релизеры, Конрад Лоренц, модель TPB, экологическое поведение, психологический механизм, связь с природой, экологическое воспитание.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Unda insonning tabiatga bo'lgan munosabatining shakllanishi, ekologik ong va ekologik mas'uliyat rivojida psixologik omillarning o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik xavfsizlik, ekologik ong, ekologik madaniyat, relizerlar, Konrad Lorenz, TPB modeli, ekologik xatti-harakat, psixologik mexanizm, tabiat bilan bog'liqlik, ekologik tarbiya.*

Ekologik tasavvurlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi insoniyatning juda qadim zamonlariga borib taqaladi. Atrof-muhit va u bilan o'zaro munosabatlarning xususiyati haqidagi bilimlar insoniyat rivojlanishining ilk davrlaridayoq amaliy ahamiyat kasb etganligini turli tadqiqotlar orqali xulosalash mumkin.

Ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati va ijtimoiy tuzilmasining shakllanish jarayoni, ularning aqliy hamda jamoaviy faoliyatining rivojlanishi nafaqat o'z mavjudligini anglash, balki bu mavjudlikning o'z ijtimoiy tashkiloti ichidagi sharoitlarga hamda tashqi tabiiy sharoitlarga bog'liqligini tobora chuqurroq tushunish uchun asos yaratgan. So'nggi o'n yilliklarda hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitlaridagi beqarorlik, tabiiy ofatlar va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



texnogen falokatlarning ko'payishi, jinoyatchilikning o'sishi, kelajakka bo'lgan ishonchsizlik, ekstremal sharoitlarda hayotga psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi – bularning barchasi amaliy psixologiya va ekstremal sharoitlarda hayot faoliyatiga tayyorlik masalalarini, ayniqsa, dolzarb qiladi. Shuningdek, bu vaziyatlar bolalar va kattalarga ekstremal va post-ekstremal sharoitlarda psixologik yordam ko'rsatish masalalarini ham o'ta muhim qiladi.

Bular insonlarning ekstremal sharoitlarda ruhiy holati va xulq-atvoridagi inqirozli o'zgarishlarga, harbiy va qutqaruv ishlarida ishtirok etgan shaxslar, ularning oila a'zolari va jabrlangan aholi uchun psixologik qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, ularning keyingi ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiyasiga e'tiborni qaratadi.²⁷

Hozirgi kunga kelib huquqiy va texnik chora-tadbirlar qilinsa-da, ammo aholi yetarli darajada rioya qilmayotganini ko'rishimiz mumkin. Yoshlar o'rtasida «Ekologik madaniyat» tushunchasi shakllangan bo'lsa-da, mas'uliyatni his qilish darajasi barqaror emasligini tadqiqotlar ko'rsatishini kuzatishimiz mumkin.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim psixologik asoslaridan biri insonning tabiat obyektlariga nisbatan munosabatining qanday shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayonda muhim mexanizmlardan biri etolog olim Konrad Lorenz tomonidan aniqlangan psixologik relizerlar hisoblanadi.

Psixologik jihatdan insonning tabiatga bo'lgan munosabati ko'pincha genetik va biologik asosga ega mexanizmlar orqali shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, Konrad Lorenzning etologik tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Lorenz tirik mavjudotlarning xulq-atvori va hissiy reaksiyalarini tushuntirish uchun relizerlar tushunchasini ilgari surgan.

Relizerlar — bu organizmga tashqi muhit orqali yetib keladigan maxsus stimullar bo'lib, ular avvaldan o'rganilmagan bo'lsa ham, genetik jihatdan belgilangan hissiy va xulqiy javoblarni keltirib chiqaradi. Inson psixologiyasida relizerlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

-Ijobiy relizerlar: Tabiiy obyektlarning estetik jozibasi, masalan, gullarning go'zalligi, hayvonlarning yoqimli ko'rinishi yoki tabiiy landshaftlarning rang-barangligi. Bu stimullar insonda ijobiy hissiy munosabatni avtomatik shakllantiradi va tabiatni himoya qilish, saqlash motivatsiyasini kuchaytiradi.

-Salbiy relizerlar: Xavf bilan bog'liq stimullar, masalan, zaharli hayvonlarning yorqin ranglari yoki ekologik buzilish belgilarining vizual salbiy ko'rinishi. Bu insonda xavotir, ehtiyotkorlik va himoya reaksiyalarini uyg'otadi, natijada ekologik xavfsizlikni ta'minlashga psixologik tayyorgarlik hosil bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, relizerlar ekologik ong va ekologik mas'uliyat shakllanishining psixologik asoslaridan biri hisoblanadi. Inson tabiat obyektlariga nisbatan ijobiy hissiy munosabat shakllantirganda, unda tabiatni himoya qilish, saqlash va ekologik xavfsizlikni

²⁷ Экологическая психология: Опыт построения методологии / В.И. Панов. - М.: Наука, 2004, 7-10 с. ISBN 5 02-032810-3 (в пер.)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ta'minlashga qaratilgan motivatsiya kuchayadi. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim psixologik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga ekologik xavfsizlikni ta'minlashda nafaqat huquqiy, texnik va tashkiliy choralar, balki insonning psixologik xususiyatlari, xususan, relizerlar orqali shakllanadigan hissiy va kognitiv munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ekologik tarbiya jarayonida tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantiruvchi psixologik omillardan foydalanish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.²⁸

Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda inson xatti-harakatlarini tushunish muhim rol o'ynaydi. Psixologik yondashuvlar bu jarayonda mexanizm sifatida ishlatiladi, chunki ular odamlarning ekologik xatti-harakatlarini shakllantiruvchi asosiy omillarni aniqlashga yordam beradi:

1. Kengaytirilgan TPB modeli

Ajzenning (1991) Rejalashtirilgan Xatti-Harakat Nazariyasiga asoslangan kengaytirilgan TPB modeli ekologik xatti-harakatlar niyatlarini tushuntirishda ishlatiladi. Ushbu model quyidagi konstruktarni o'z ichiga oladi:

-Xatti-harakatga bo'lgan munosabat (attitude): shaxs ekologik xatti-harakatlarning natijalari haqida qanday fikrda ekanligini ko'rsatadi.

-Subyektiv normalar (subjective norms): atrofdagi odamlarning ijtimoiy kutishlari va bosimi.

-Perceived Behavioral Control (PBC): xatti-harakatni amalga oshirishdagi osonlik yoki qiyinchilik tushunchasi.

-Ijtimoiy identifikatsiya (social identity): odamlarning o'zini guruh va jamiyat bilan bog'lash darajasi; ekologik xatti-harakatlarda to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

-Muammo xabardorligi (problem awareness): shaxs kelajakdagi ekologik muammolarni sezishi va ular haqida ongli bo'lishi.

-Tabiat bilan bog'liqlik (connectedness to nature): odamlar o'zlarini tabiat bilan bog'laganlik darajasi, bu ularni ekologik xatti-harakatlarga undaydi.

Ushbu konstruktlar orqali shaxslar "kollektiv harakatlarda ishtirok etish", "bioxilma-xillikni saqlash choralari uchun mablag' ajratishga tayyorlik" va "bioxilma-xillikka do'stona iste'mol qilish" kabi ekologik xatti-harakatlarni amalga oshirishga motivatsiyalanadi. Jumladan, Agar shaxs ekologik muammolar (masalan, chiqindilarni noto'g'ri yo'q qilish) natijalarini bilsa → u chiqindilarni ajratishga motivatsiya qiladi.

Subyektiv norma: Do'stlar yoki hamkasblar ekologik toza xatti-harakatlarni amalga oshirsa, shaxs ham shunga ergashadi.

Perceived Behavioral Control (PBC):

-Shaxs atrof-muhitni himoya qilish osonligini his qilsa (masalan, hududda chiqindilar uchun konteynerlar mavjud) → ekologik xatti-harakatlarga kirishadi.

²⁸ Экологическая психология и педагогика/ Дерябо С.Д. Ясвин В.А.:Наука,2004,79с.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Muammo xabardorligi:

- Masalan, global isish va suv resurslarining kamayishi haqida xabardor shaxs → suvni tejash va chiqindilarni kamaytirish choralarini ko'radi.

Psixologik nuqtai nazardan, ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari shaxsning ekologik xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi bir qator omillar orqali amalga oshadi: xatti-harakatga bo'lgan munosabat, subyektiv norma, xatti-harakatni boshqarish qobiliyati (PBC), ijtimoiy identifikatsiya, muammo xabardorligi va tabiat bilan bog'liqlik. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit tiplari (milieu) ham odamlarning ekologik xatti-harakatlarga motivatsiyasini belgilaydi.

Tabiat obyektlariga nisbatan ijobiy hissiy munosabat ekologik mas'uliyat va xavfsizlikni ta'minlashga motivatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, shaxsning ekologik xatti-harakatlarini belgilovchi omillar — xatti-harakatga bo'lgan munosabat, subyektiv norma, xatti-harakatni boshqarish qobiliyati, ijtimoiy identifikatsiya, muammo xabardorligi va tabiat bilan bog'liqlik — ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarining psixologik poydevorini tashkil qiladi. Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlikni ta'minlash faqat qonunchilik va texnik choralar bilan cheklanmaydi. Lorenzning relizerlar mexanizmi shuni ko'rsatadiki, inson tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabat orqali ichki motivatsiyaga ega bo'ladi. TPB modeli esa bu motivatsiyani xatti-harakatga aylantiruvchi omillarni — munosabat, ijtimoiy norma va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini — aniq ko'rsatib beradi. Shuning uchun ekologik tarbiyada psixologik yondashuv markaziy o'rin egallashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 .Абидова З.А.Толерантность—основа интеграции науки и образования. - Современное образование (Узбекистан), 2016.
- 2 .Абдурахманова З. Э. ПСИХОЛОГИЯ ФАНИДАН АТЛАС: Услужбий қўлланма. – Тошкент: «TURON-IQBOL», 2021.
- 3 .Дерябо С.Д. Ясвин. .Экологическая психология и педагогика. В.А:Наука.- 2004,79с.
- 4 .Klimova, O., & Petrova, N. (2025). Psychological determinants of nature-protecting behavioral intentions in different social milieus. Current Research in Environmental Psychology, 3, 100252, 1–10.
- 5 .Панов В. И. Экологическая психология: опыт построения методологии. – М.: Наука, 2004. – 197 с.
- 6 .Социальная экология: Учеб. Пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений.-М.: Издательский центр «Академия», 2000.-280 с.